

**AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MUSIQA MADANIYATI VA
SAN`ATINING PEDAGOGIK TAHLILI.
IV- XII ASRLARDA TURON,MOVARAUNNAHR XALQLARINING
MADANIYATI VA SAN`ATINING,RIVOJLANISHI**

*Farg`ona Davlat Universiteti
Magistritura bo`limi II bosqich talabasi
Mirkomilova Nigora*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada IV- XII asrlarda Turon, Movaraunnahr xalqlarining madaniyati va san`atining, rivojlanishi yoritiladi

***Kalit so`zlar:** IV- XII asrlar, tarixiy manbalar, Turon, Movaraunnahr ma`naviy merosi, O`rta Sharq xalqlari, O`rta Osiyo, IV- XII asrlarda ko`s, nog`ora, “Chabchig`” va “Shon” cholg`u Duvozdahmaqom, Risola, Maqomot Buyuk olimlar Xorazmiy, Marog`iy, Ibn Sino, Ulug`bek, Kavkabi, Navoiy Binoiy, Bekzod.*

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ И
ИСКУССТВА ВО ВРЕМЕНА АМИРА ТЕМУРА И ТЕМУРИДОВ.
РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА НАРОДОВ ТУРАН,
МОВАРАУННАХР В IV-XII ВВ.**

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещается развитие культуры и искусства народов Туран, Моварауннахр в IV-XII веках.

Ключевые слова: IV-XII вв., исторические источники, Туран, духовное наследие Моварауннахра, народы Ближнего Востока, Средней Азии, кос, барабан, инструмент «Чабчиг» и «Шон», Дувоздахмаком, Рисола, Макамот Великие ученые Хорезми, Мароги, Ибн Сина, Улугбек, Кавкаби, Навои Бинай, Бекзод.

**PEDAGOGICAL ANALYSIS OF MUSIC CULTURE AND ART IN THE
PERIOD OF AMIR TEMUR
DEVELOPMENT OF CULTURE AND ART OF TURAN, MOVARAUNNAHR
PEOPLES IN IV-XII CENTURIES**

ANNATATION

This article covers the development of the culture and art of Turan, Movaraunnahr peoples in IV-XII centuries.

Key words: 4th-12th centuries, historical sources, Turan, spiritual heritage of Movaraunnahr, peoples of the Middle East, Central Asia, kos, drum, "Chabchig" and "Shon" instrument Duvozdahmaqom, Risola, Maqamot Great scholars Khorezmi, Maroghi, Ibn Sina, Ulug`bek, Kavkabi, Navoi Binai, Bekzod

IV asrlarda navro‘z, yangi yil kuni zardushtiylar ertalab siyovushni Buxorodagi qabri ustiga xuroz suyishganlar. Buddizm, maniy va shaharlarida kristiyanlik xam mavjud bo‘lgan. Sugit tili, yozuvi keng tarkalgan. Bundan tashqari, Buxoro, Xorazm Eftaliy yozuvlari bo‘lgan. Eftaliylar davri moddiy ma‘daniyat namunalaridan Xorazmdagi Firkala (Karakolpogistonda) va Boxoro viloyatidagi poykand shaharlaridir. Poykand hunarmandchilik va sardon markazi Xitoycha BN deb, arablarda "Madina ut tujar" (savdogar shahri) deb yaratilgan. 305 yilda Xorazm shox Afrig‘ Kat shahrida o‘ziga kasr va uni ichida saroy qurdiradi hamda Afrigi potshoxlari tomonidan tangalar zarb kilinadi.

V- VI asrlarda sharqiy turkiston va O‘rta Osiyo yerlariga paxta ekilgan, lekin bu davrda xali Xitoyda paxta ekilmas edi. Eftaliylar davrining xashamatli kasrlaridan biri Surxandaryodagi Bolalik tepadan topilgan Bunda aslzoda yigit va kizlarni tantanali lavxalari nikoxlanish marosimlari juft-juft teri sukib utirgan erkak va ayollar tasvirlangan. O‘rta asrlarda usimliksimon me‘moriy nakshlar ishlab chiqish boshlangan. Davriy rasmlar O‘rta Osiyoni boy matolari durlar xalqasi bilan bezatilgan, nakshsimon kushlar, echki, afsonaviy semurg va boshqalar. So‘g‘dda sapol haykalchalar yashash san‘ati rivojlangan. Yana xukumdor bazmi, paxlavonlar jangi, kushikni kamol kilinish lovxalari xam tasvilargan. Uy-ro‘zgor buyumlariga ham naqshlar berilgan. VI-VIII asrlardagi me‘moriy yodgorliklar Ajina -tepa (toj) degan xam topilgan. Bunda devoriy suratlarda qishloq xo‘jaligini aks ettiruvchi rasmlar, kiyinish madaniyatlari aks ettirilgan. VII-VIII asrlarda darbozlik, kizikchilik san‘ati xam rivojlangan. Ayniksa Buxoro tamoshachilari, Samarqand naychilari, Chog uyinchi yigit-kizlari, Xujand surnaychilari, Xorazm makomchilarining san‘ati kuchli bo‘lgan. VI-VIII asrlarda Turon aholisi zardushtiy, budda, xrestianlik, moniy, kam (shamon) dinlariga siginganlar. Natijada Turk xakonligi davrida turlarining Turklarning siyosiy va madaniy merosi sharqiy Turkiston, Janubiy- Sharkiy Yevropaga tasir qilgan. IX-XII asrlar Movaraunnahr xalqlari madaniyati va san‘ati o‘tmish qadriyatlarimizni har tomonlama o‘rganish qurilayotgan huquqiy-demokratik davlatimizni to‘g‘ri rivodlanishiga, kelajakni oqilona belgilashga xizmat kiladi. O‘rta asr musulmon mamlakatlaridagi ilmiy va ma‘naviy-ma‘rifiy tafakkur taraqqiyotida chukur iz koldirgan markazlar mavjud. Bog‘dodda Yahyo ibn Mansur, Muhammad Muso al-Xorazmiy raxbarligidagi "Donishmandlar uyi" yoki Birinchi Ma‘mun Akademiyasi, Xorazmda Abu Rayxon Beruniy raxbarligidagi Ikkinchi Ma‘mun Akademiyasi, Marog‘ada Nasriddin Tusiy raxbarligidagi aстранomiya maktabi, keyinchalik Samarqandda Ulug‘bek akademiyasi va boshqa kuplab ilmiy maktablar mavjud bo‘lgan. Al-Xorazmiy 830 yilda xalifa Ma‘munni topshirigi bilan

"Tuldirish va karama-karshi kushish hisobiga oid kiskacha kitob" asarini yozdi. Al-Xorazmiy ijodiy laboratoriyasida riyoziyot fanlari bilan birga falakyot, jugrafiya, tarix ilmlari aloxida urin tutadi. Ayniksa, "Er surati", "Kitob at tarix" kabi asarlari fan vama'naviy-ma'rifiy tafakkur tarixida o'rni kattadir. Bog'dod akademiyasida al-Xorazmiy bilan birga al-Fargoniy xam faolyat ko'rsatgan. Al-Fargoniy (797-865) astranom, matematik olimdir. Uning hayoti bilan bog'liq asosiy ma'lumot 861 yilgi voqea bilan bog'liqdir. Ya'ni shu yili koxira yaqinidagi Ravzo orolida Nieometrni ya'ni Nil daryosi satxini belgilovchi uskunani yasagan. Al-Fargoniyni dunyoga mashhur qilgan asosiy asari "samoviy harakatlar va umumiy ilmiy nujum kitobidir". Uning bizga 8 ta asari ma'lum. Al-Fargoniy Yevropada "Alfraganus" nomi bilan mashhur bo'lgan. Fargoniyning nomi xam al-Xorazmiy nomidek Shark va Garbda mashhurdir. Gurganchdagi "Majlisi Ulamo" yoki ikkinchi ma'mun akademiyasi nomi bilan mashhur bo'lgan ilmiy markaz Abu Ali Abbos Ma'mun (1010-1017) hukmronlik qilgan davrda Xorazmda tashqil etildi. Bu paytda Xorazmshoxning Saximiy degan vaziri ma'rifiy ishlarga katta e'tibor bergan va ilm axliga mexr-muruvatta bo'lgan. Shu bilan birga akademiya Abu Rayxon Beruniy, al-jurjoniy, Abu Ali Ibn Sino, Ibn Iroq kabi bir qancha fozil kishilar faoliyat ko'rsatganlar. Ma'mun akademiyasida Beruniy boshlik olimlarga barcha imkoniyatlar yaratildi. Abu Rayxon Beruniy (973-1084) ma'mun akademiyasida olib borgan ilmiy faoliyat jarayonida fanning barcha yunalishlarida 150 dan ortik asrlar yaratgan komusiy olimdir. Beruniy ma'mun akademiyasiing faol a'zosi bo'lgan, Buxoroliy alloma Ibn Sinoning pedagogik ta'limoti va sulubiy ijodiy boyitadi va Sharq pedagogikasida birinchi bo'lib kiyosiy tarbiya, ta'lim va tarbiyaning birligi, uzviyligi to'g'risidagi goyalarni rivojlantiradi va "Minerologiya", "Qadimgi xalqlardan kolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Geodeziya", "Maqollar", "E'tiqodlar va dinlar haqida" kabi asarlarni yozdi.

Demak, hozirgi O'zbekiston davlatimiz yuqoridagidek buyuk allomalarni yetkazib, jahon fani va madaniyatiga katta xissa qo'shgan maskandir. Utmish kadriyatlarimizni hozirgi kunda va kelajagimizni buyukligida katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun Prezidentimiz 1997 yil 11 noyabrda Xorazm ma'mun akademiyasini qayta tashqil etish to'g'risida farmon chikarib, Xivada qayta tashqil etildi va u akademik Azimboy Sadullaev raxbarligida faoliyat ko'rsatmokda.

IX-XII asrlarda o'rta asr adabiyoti xam rivojlandi. Abu Nasr Farobiy (873-950) filologiya fanini rivojlantirdi va ilm fanni 2 ga nazariy va amaliy fanlarga ajratdi. Nazariy fanlarda tabiatshunoslik va matematika. Amaliy fanlarda odob, axlok va siyosat fanlarini kritadi. Farobiy hudona borlikni birinchi a'zosi deb kurschatadi va o'zini "Ajoyib shahar aholisini fikr-qarashlari" nomli asarida jonni tanaga bog'liqligi to'g'risida fikr yuritadi. Farobiy "Falsafaning asosiy g'oyalari haqida" degan asarida "Insondagi eng asosiy narsa so'zlovchi vujudir" deb ko'rsatadi. Mahmud Qoshg'ariy tilshunos olim 1069 yilda "Devonu lug'atit turk" (turkiy tillar devoni), Yusuf Xos Xojib 1069-1070 yillarda "Qutatg'u bilik" (saodatga boshlovchi

bilim), Ahmad Yugnakiy "Xibatul haqoyiq" (haqiqatlar sovgasi) kabi asarlar yaratadilar.

Maxmud Kashgariy "Turkiy suzlar devoni" da turkiy tilga oid so'zlar, tarixi, turmush tarzi, badiiy ijodi to'g'risida ma'lumot beradi. Asarda inson samimiyligi va sevgi iztiroblarini kuylaydi. Amir Temur zamonida yozilgan asarlarni qunt bilan o'qisak, o'rgansak, uning ko'p yaxshi xislatlari: to'g'rilik, muruvvatlilik, el-yurtiga mehr-muhabbat va boshqalarni bilib olishimiz mumkin. Amri Temurda vatanni sevish, xalqni ulug'lash faxrlanish va g'ururlanishi singari oliy ma'naviyat fazilatlar barq urib turgan. Amir Temurning "Temur tuzuklari", Nizomiddin Shomiy va Sharfiddin Ali Yazdiylarning "Zafarnoma"lari, Ibn Arlbshohning "Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari" va boshqa asarlarda keltirilgan sahibqironning ibratli ishlari, pand-nasihatlari va o'gitlaridan ham uning kimligini bilib olsa bo'ladi. Bular el-yurt va fuqorolarning tashvishi, ranyatparvarlik, mehr-muruvvat, qo'shnicilikka rioya qilishi va nihoyat, mardlik va qahramonlik haqidagi o'g'itlardir. Amir Temurning fikru-yodi Vatanni, xalq kuch-qudratini ulug'lash, boshqalar tomonidan e'tirof etilishini ko'zlab faoliyat yuritdi. Shu bilan Turon xalqlari kuchu mahoratida, jangu jadallardagi jasoratida, fan, ishlab chiqarish kabi barcha sohalarda dunyoda biron bir xalq yohud davlatdan kam emas, balki birinchilardan ekanligini o'zi bosh bo'lgan davr misolida isbotlab berdi.

Amir Temur va Temuriylar davrini, mubolag'asiz, nafaqat o'zbek xalqining, balki butun Yakin va O'rta Sharq ellarining musiqa san'ati jadal ravnaq topgan, kamolot cho'qqisiga erishgan, chinakam Uyg'onish davri bo'lgan deyish mumkin. Zero, bu xalqlar yagona davlatni tashkil etib, o'zaro samarali madaniy aloqalar o'rnatibgina qolmay, ayni vaqtda Osiyo va Ovro'poning eng yirik mamlakatlari bilan ham ma'naviy bog'lanish imkoniyatiga ham ega bo'lganlar.

Amir Temur armiyasining harbiy orkestri - damli va zarbli cholg'ularning xilmal-xil turlaridan tashkil topgan. Ularning ko'pchiligi Turk hoqonligi, somoniylar, qoraxoniylar va Osiyoda yaxshi tanish bo'lgan nog'ora turlari ko's, tabira, al-tabra, bir tomonli nog'ora, chindoul, doul-paz, katta nog'ora kabilardan foydalanilgan. O'rta asr miniaturalaridagi tasvirlar ga qaraganda, qo'sh nog'oralari sipohiy sozandalar tomonidan otning ustida, egarning ikki tarafiga joylanib chalingan. Katta ko's nog'ora esa aksariyat miniaturalarda tuyaning o'rkachiga o'rnatilgan holda tasvirlangan. Dovul cholg'usi o'sha paytda duhul nomi bilan mashhur bo'lgan. Bir qal'ani zabt etish manzarasini tasvirlay turib, Ali Yazdiy yozadi: "Unda (ya'ni qal'ada) 300 erkak duhul va sumaylami chalish bilan tamoman mashg'ul edi". Bu davrda, shuningdek, musulmon Sharqida azaldan mashhur bo'lgan tabla va misdan yasalgan jaras (lappak-tarelka) urma cholg'ularidan keng foydalanilgan. Qadimgi davrdan hozirgi kungacha mashhur bo'lgan surnaylar qatorida temuriylar mehtarligida yangi turkiy an'analar bilan bog'liq "Chabchig'" va "Shon" cholg'ulari ham keng qo'llaniladi. Hoja Abdulqodir Marog'iyning ma'lumotlariga qaraganda, chabchig' ko'p qamishli musiqor" (Ovro'padagi Pan fleytasiga o'xshash) asbobining bir turi bo'lib, mohir sozandalar ularga yordamchi parda

teshikchalarni qo'shishgan. Damli va zarbli cholg'ulaming harbiy yurishlardagi ahamiyatini barcha sarkarda va lashkarboshilar yaxshi bilganlar. Dushmanni faqat lovu lashkar, nayza, qilich, yoy bilan emas, balki uning yuragiga qulog'i orqali tovush-sas bilan dahshat va g'ulg'ula solish yo'li bilan urushda g'olib chiqishda kamay va nog'oralaming o'z o'rnini borligini tan olganlar. Ammo inson hayotida harbiy yurishlardan ko'ra to'y, bayramva sayillar ko'proq bo'lgan, "Navro'z", "Mehrjon", "Mina", "Qizil gul" kabi bayram va sayillaridagi ommaviy teatrlashgan raqs o'yinlarida ochiq havoda chalinadigan damli cholg'ular ularga jo'r bo'lganligini, bunday marosimlarda xalqni yig'ish, ularga hush kayfiyat bag'ishlash, ruhini ko'tarish kabi ezgu amallarni bajarishda qo'l kelganligini e'tirof etish mumkin. Amir Temurning o'zi musiqaning xis-tuyg'ularga ta'sir imkoniyatlaridan boxabar bo'lib, amaliyotda undan mohirona foydalangan. Sohibqiron saroyda o'tkazilgan tantanalarda doimo musiqachilar-ning ijrosini maroq bilan tinglab, yangi yaratilgan asarlarga baho berishni xush ko'rgan. Uning bu fazilatlarini merosxo'rlaridan tortib sarkardalarigacha butun saroy ahli yaxshi bilgan. Sohibqiron harbiy yurishlarda ham musiqiy asboblarga bo'lgan ixlosini unutmagan. Jumladan, uning harbiy amaliyot tarixiga kiritilgan qator «kashfiyotlari» nihoyatda qiziqarlidir. Masalan, mo'jiz shahar yoki kishloqqa hujum boshlangdan oldin, u erga yashirin ravishda karnaychi va nog'orachilar kiritilgan. Erta tong bexosdan bu asboblarning yangrashi aholini dovdiratib, harbiylarga katta yordam bergan. Amir Temurning musiqiy asboblarga bo'lgan mehrini uning harbiy yurishlari tasvirlangan ko'pgina miniatyuralar ham tasdiqlaydi. Temuriylar davrida, saroylarning bosh darvozalari tepasiga maxsus nog'oraxonalar qurish odat tusini olgan, bu hol musiqa san'atiga bo'lgan e'tiborning yana bir yorqin dalilidir. Ma'lumki, Saroy musiqiy guruhlarining asosan karnaychi va nog'orachilardan iborat etakchilarini hukmdorning shaxsan o'zi tayinlar, ularni «mehtar» deb atashar edi. Mazkur to'dalar ommaviy bayram va tantanalarda, masalan, Ramazon oyida bozorlarda kechasi o'tkaziladigan udumlarda (bozor-i-shab) va hokazolarda faol qatnashardi.

Bizga qadar etib kelgan qo'lyozmalar XIV-XV asr musiqa madaniyati xususida boy ma'lumotga ega bo'lib, bu davr haqida to'laqonli taassurot hosil qilish imkonini beradi. Shunga ko'ra bu davrning o'ziga xosligi unda jo'shkin harkatchanlik etakchilik qilganligidadir, deyish mumkin. Shu boisdan, aynan mazkur davrda, mahobatli maqomlar tizimi-»Shashmakom»ning shakllanishi mantiqiy nihoyasiga etdi. Bu jarayonga, ya'ni «Olti maqom» turkumining maydonga kelishiga adabiy «Xamsa»lar ta'sir ko'rsatgani ehtimoldan xoli emas. O'tgan davrlar tajribasini ijodiy o'zlashtirish bu ikki ijodiy tarmoqda biray namoyon bo'ldi. Bunda sh'eri to'plamlar uchun Nizomiy Ganjaviy (1141-1209) va Xusrav Dehlaviy (1253-1325) «Hamsa»lari asos zamin bo'lgan bo'lsa, «Shashmaqom»ning shakllanish jarayonida mazkur «Hamsa»lar zamondoshi «Duvozdahmakom» xuddi shu vazifani ado etdi. Asrlar davomida rivojlanib kelgan bu turkumning boshqa bir shaklga o'tishi nihoyat darajada murakkab va ko'p muddat talab

etadigan jarayondir. Shunga ko'ra, XII-XIII asrlar mobaynida shakllangan «Duvozdahmaqom» ayni Temuriylar davrida o'zining barqaror ko'rinishida namoyon bo'ldi. Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Zaynulbiddin Husayniy risolalari ham buni tasdiqlaydi. XIV asrdan e'tiboran «Shashmakom» turkumining shakllanish jarayoni boshlandi. «Duvozdahmaqom» ham mustaqil ravishda davom etgan bo'lsa-da, uning tarkibiy qismlari yangi turkumda ko'llanildi. Ilk davrda «Duvozdahmaqom» butun Yaqin va O'rta Sharq xalqlari madaniyatiga birday xos bo'lgan. Temuriylar davridan boshlab esa bu jarayonga muayyan mahalliy xislatlar ta'sir eta boshlagan. Manbalarda Amir Temur va Temuriylar davridagi davlat bayramlari munosabati bilan uyushtirilgan sayillar, namoyish va tomoshalar haqida anchagina ma'lumotlar saqlanib qolgan. O'zbek musiqa madaniyati shu davrda Shayboniyxon hukmronligi bilan bog'liq. O'rta Osiyo xalqlar hayotida XV asrning ikkinchi yarmida shaharlarda bo'lib o'tgan og'ir urushlar, vayronalar o'z izlarini qoldirdi. XVI asr esa Amir Temur va temuriylar sulolasi hukmronlik qilgan. Uning san'at va madaniyatga bo'lgan munosabati hamisha ijobiy bo'lib, ilm-fan rivojlanishiga katta e'tibor berib kelgan. Uning san'at va madaniyat, ilm-fanga bo'lgan munosabatini akademik LMo'minov quyidagi fikrlar bilan tariflaydi: «Amir Temur ilm-fanning matematika riyoziyot, geometriya, astronomiya, handasa, arxitektura-me'morlik, axtarshunos, adabiyot, tarix, musiqa kabi sohalarini rivojlantirishga ayniqsa katta e'tibor beradi, u sohibhunarlar bilan suhbatlashardi¹. «Zafarnoma» muallifi Sharofiddin Ali Yazdiy o'z asarida Amir Temur to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: «Temur o'zi barpo etgan Balkon³⁶ shahrida olim va fuqarolar kengashini chaqirib, unda so'zlagan: Fan va dinning mashhur kishilari o'z maslahatlari bilan podshohlaiga yordam berib kelganlar. Sizlar esa menga bunday qilmayapsizlar. Mening maqsadim: «Zafarnoma» muallifi Sharofiddin Ali Yazdiy o'z asarida Amir Temur to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: «Temur o'zi barpo etgan Balkon shahrida olim va fuqarolar kengashini chaqirib, unda so'zlagan: Fan va dinning mashhur kishilari o'z maslahatlari bilan podshohlaiga yordam berib kelganlar. O'rta Osiyo musiqa madaniyatiga o'z hissasini qo'shib, 12 maqomli she'riy matn va musiqani tartibgasolgan. Kavkabiylar 1532-yili Buxoro shahrida dunyoga kelgan. Musiqa sohasida turi ilmiy risolalar yaratgan. Kavkabiylar mutafakkir olimlar - Forobiy, Ibn Sino, Urmaviy, Omumiyy kabilar fikriga tayangan holda O'rta Osiyoda musiqa amaliyotini yaqinlashtirishga intilgan musiqashunoslardan biri hisoblanardi. Kavkabiylar hayoti va ijodi to'g'risida manbalarda deyarli ma'lumotlar yo'q. Faqat Hirotda tahsil olganligi ayrim tarixiy manbalarda zikr etgan. Kavkabiylar o'z asarlarini fors tilida yaratgan. «Risolayi musiqiy» asari Shayboniy Ubaydullaxon buyurtmasi asosida yaratilgan Risolada musiqa nazariyasidan ma'lumot keltirilgan, o'n ikki maqom tizimiga nazariy yondashgan, turli zarblarni keltirib, ularning xususiyatlariga ta'rif bergan. Shu bilan

¹ Muminov I. A. Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va ioli. T-1993,23 b. (Ushbu ma'lumot N.Shodmonovning «Temuriylar davrida musiqashunoslik» asarida keltirilgan.

birga, Kavkabiylar maqomlarining ijro usuli to'g'risida so'z yuritadi. Qaysi maqom qay paytda ijro etiladi va insonga ta'sirini bayon etadi. Uning risolasi nusxalari Toshkent, Dushanbe va Sankt-Peterburg Sharqshunoslik va ilmiy-tadqiqot institutlarida saqlanilmoqda. bo'lgan an'analar xonlik saroyida ham davom etgan. Uning «Musiqahaqidagi risola»sida tovush paydo bo'lishidan sozanda va xonandalarning Kavkabiylar o'z zamonida zabardast musiqahaqilimdoni, yuqori iste'dodga ega bo'lgan shaxs sifatida mashhur bo'lgan. Atoqlimusiqa shunos Ishaq Rajabov Kavkabiylarning iste'dodligini quyidagicha zikr etgan: «Mavlono Kavkabiylar kabi mahoratli bastakor kam bo'lgan», maqom yo'llari asosida naqshlar², amallar³ va peshravlar⁴ yaratgan. Ayniqsa, she'rlar tanlab ularni ustalik bilan ashulalarga bog'lardi⁵. Nadim – saroy lavozimi bo'lib, unga o'z davrining eng mashhur, she'riyat va san'atning barcha turlaridan yuksak mahoratga ega bo'lgan san'atkorlar tayinlangan. 1400 yil Amir Temur Bag'dod shahrini zabt qilgandan so'ng, bu shaharda vaqtincha istiqomat qilib turgan Hoja Abdulqodir Marog'iyni ham boshqa olim-u fuzalolar, muhandislar bilan birga Samarqandga olib ketadi. Shundan boshlab Marog'iy Samarqandda Temur va temuriylar saroyida istiqomat qilib, faoliyat yurita boshlaydi. Bu davr uning hayotida eng mahsuldor yillar bo'lib, natijada Abdulqodir o'zining asosiy asarlaridan «Maqosid-il alhon», «Jali-ul alhon» va boshqalarni yaratadi. Alloma shuningdek, Samarqandda «Miyatayn zarb-ul fath», «Davri shohi» hamda qator yangi nuba (navbat) turkumlarini ham yozgan. Amir Temur vafotidan so'ng Hoja Abdulqodir Hirotda Shohruh saroyida hizmat qiladi va shu erda 1434 yil vafot etadi. Taniqli olim va musiqachi Abdulqodir avval Temur, keyinchalik esa uning vorislari saroyida xizmat qilgan. U saroy musiqahaq shakllari bayon qilingan musiqahaq risolasining muallifidir. Abdulqodir madhiyahaq xarakteridagi («Mayatayn») musiqahaq asari ham ijod qilgan. Risolada tarje', peshrav va boshqa bir qator bizning davrimizgacha yetib kelgan musiqahaq janrlari ham eslatib o'tilgan. Movaraunnahr zaminida Amir Temur asos solgan yangi davlatda yuzaga kelgan ijtimoiy-madaniy muhit Islom madaniyatining Ikkinchi Uyg'onish davri deb e'tirof etiladi. Shunga ko'ra saltanat poytaxtiga aylangan

² Sharq xalqiari musiqahaqga xos bezak nomlaridan bin. 2) O'n ikki maqom tizimi tarkibida uchraydigan musiqiy shaklUaridan bin. Najmiddin Kavkabiylar naqsh muiakkab shakldagi ikki baytni qamrab oladigan kichik hajmdagi asar sifatida ta'riflagan. / R. Yunusov. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi 294-v. 6-bob.

³ 40 A mal (arabcha so'z bo'lib — ijodiy asar ma'nosida kelgan) o'tmishda kuy yoki ashulaning ma'lum uslubda yaratilgan shakli. Navoiy va Bobur asarlarida, bastakorlar haqida ma'lumotlar berilgan. Kavkabiylarning yozishicha agar bir necha kuy tuzilmalarida sarxona, miyonxona va bozgo'y kabi unsurlar bo'lib, unga ma'lum o'Ichovdagi she'r asos qilib olingan bo'lsa, amal hisoblanadi. / O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi 252-v. 1-bob.

Peshrav (fors so'zidan olingan bo'lib – oldinda yuruvchi). 1) Ashula yo'llarida cholg'u muqaddima vazifasini bajaruvchi kuy tuzilmasi. Bastakorlik ijodiyoti rivojlanishi jarayonida peshrav mustaqil cholg'u kuy sifatida shakllangan. 14-17-asrlarda «Ревррав» nomi ayrim ashula namunaloriga ham ishlatilgani ma'lum; 2) Shashmaqom va Xorazm maqomlari tarkibidagi cholg'u qism nomi. Shashmaqom majmuasidagi Dugoh maqomi mushkilot bo'limida Peshravi Dugoh asari mavjud. Xorazm maqomlarida Peshrav asosiy cholg'u qismlaridan biri hisoblanadi; 3) Kuy rivoji vositasi, uslubi. Har navbatdagi yuqoriroq joylashgan pardalardan biri zabt etilgan, pog'onama- pog'ona pastga qarab siljish orqali tayanch pardagacha qaytib kelinadi. Deyarli barcha mumtoz cholg'u kuylarida Peshrav vositasi qo'llanilgan. Keng ma'noda maqom cholg'u yo'llari Peshrav uslubi ta'siri ostida bastalangan. 20-asr o'zbek bastakorlari (T.Jalilov, Yu.Rajabiy, K.Jabborov va boshqalar) Peshrav xususiyatlaridan foydalanib ashula, ommabop qo'shiqlar yaratishgan. / R. Yunusov. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 62-v. 7-bob.

⁵ Rajabov I. Maqomlar. - T.: 2006. -35-6.

Samarqandga dunyoning turli burchaklaridan atoqli olimlar, hunarmandlar, shoiru san'atkorlar quyilib kela boshladilar. Ular orasida ko'plab hofizu cholg'uchilar, sozandayu go'yandalar ham bor edi. Saltanatning bosh sozandasi Xoja Abdulqodir Marog'iy bo'ldi. U o'z davridayoq "sohibi advor" ("advor egasi"), "saromadi advor" ("advor ilmining eng oldingi vakili") degan yuksak unvonlarga sazovor bo'lgan. Temuriylar davri madaniyatining ko'rki hisoblangan Abdulqodir ijodi nafaqat mintaqaviy, balki jahon miqyosida katta ahamiyatga ega. Musiqashunoslik borasida XX asrning yirik olimlaridan biri Genri Jorj Farmerning ta'kidlashicha, u Forobiy, Ibn Sino va Safiuddin Urmaviy bilan bir qatorda Sharq musiqa ilmining asosiy ustunlaridan hisoblanadi. Marog'iy - zamonasining deyarli barcha diniy va dunyoviy ilmlarini egallagan, qomusiy ko'lamdagi shaxs. Olim qalamiga mansub "Zubdat ul-advor", "Maqasid ul-ilqon", "Jome' ul-alqon" va boshqa musiqa risolalari bugungi kunda ham o'zining ilmiy va amaliy ahamiyatini yo'qotgan emas. Bundan tashqari, u qur'on ilmini o'zlashtirgan mohir hofiz, maxsus diniy qo'shiqlar ijrochisi-go'yanda, xilma-xil asboblarda ijro etadigan zabardast cholg'uchi, arab, fors va turkiy tillarda ijod qilgan shoir va turli janrlardagi musiqiy asarlarning muallifi bo'lgan. So'nggi sohada u shunday bir oliyjanob namunalar ijod qilganki, ularning shon-shuhrati bizning davrimizgacha saqlanib kelgan. Masalan, Marog'iy zamonida "miyatayn" (arabcha lug'aviy ma'nosi ikki yuz) deyiladigan 200 usuldan iborat musiqiyning murakkab shakli joriy etilgan. Marog'iyning o'zi shunday bir "miyatayn" yaratganki, uningdovrug'i keyingi vaqtlarda ham pasaygan emas. Yoki bo'lmasa, u paytlarda klassik musiqaning eng murakkab turlaridan biri - "navbati murattab" (tartiblashgan navbat) bo'lgan. Navbat (lug'atda navbaning ko'plik soni, istiloxda izma-iz keluvchi) murakkab, ko'p qismli asarni bildiradi. Murattab - "tartiblashgan", "tartibga solingan" degan ma'noni ifodalaydi. "Navbati murattab" esa qonun-qoidalari muhimlashgan turkumli asar ma'nosini anglatadi. Marog'iy davrida "navbati murattab" quyidagi to'rtga asosiy qismdan iborat bo'lgan: 1) qavl - vazmin va ulug'vor holatdagi musiqa asari, so'z matni arabcha; 2) g'azal - lirik kayfiyatdagi forsiy va turkiy she'rlar ijro etilgan asar; 3) tarona - kichikroq hajmdagi. Hirotida Temurning vorisi Shohruh saroyida, ayniqsa Samarqandda, Shohruhning o'g'li Ulug'bek saroyida musiqa taraqqiy etdi. Ulug'bek Samarqandni ilmiy va madaniy hayotning markaziga aylantirdi. U shoir va musiqachilarga homiylik qildi. Adabiyot va musiqaga ko'proq xalq elementlari singdirila boshladi. Turkiy tilda ijod qiladigan shoirlar o'rtasida folkloriga, turkiy xalq ohanglariga qiziqish ortib bordi. «Ma'shuqa turkiy qo'shiqlarini kuylar ekan,- deyiladi g'azallarning birida,- uning mag'rur qo'shig'i qalbinga olov yoqdi». Samarqand shoir va musiqachilarini boshqa shaharning boylari taklif qilardi. Hatto oliy martabali ruhoniylar ham musiqa ishtiroqida ziyofatlarni uyushtirganlar. Biroq, bu odat diniy qoidalarga zid bo'lib, shariat peshvolarining g'azabini keltirardi. XV asrning ikkinchi yarmiga kelib Samarqand o'zining madaniy mavqeyini hirotga berib qo'ydi. Hirotida adabiyot va san'at- arxitektura,

rassomchilik, musiqa yuksaldi. Hirotida madaniy hayotning gullab-yashnashi Alisher Navoiy nomi bilan bog`liqdir. Chunki u shoh Sulton Husayn Boyqaroning o`ng qo`l vaziri bo`lib, shoirlar, musiqachilar, rassomlar, xususan san`atning yuqori baholangan turlaridan biri miniatyura ustalarini rag`batlantirdi va ularga yo`l ko`rsatdi. Abdulqodir Marog`iyning musiqiy-nazariy merosi juda keng qamrovli bo`lib, temuriylar davri musiqa madaniyatining barcha jihatlarini, yo`nalishlarini va milliy etnik an`analarini aks ettiradi. U birinchi bo`lib mo`g`ul-turk xalqlari musiqa madaniyatiga ham katta e`tibor berib, ularning amaliy-nazariy jihatlarini atroflicha yoritgan. Marog`iyning asosiy asarlari quyidagilardir: 1) «Kanz ul alhon», 2) «Jali ul alhon», 3) «Maqosid il alhon», 4) «Zubdat ul advor fi sharqil advor» (sharq ul advor), 5) «Ruxparvar» (Safiuddin Urmaviy «Kitab ul advor» asarining turkum tarjimasini), 6) «Risolai sozi Chiniy» («Musiqiy Chiniy»), 7) «Favodiyid il ashara va lahmia». Yuqorida ta`kidlanganidek, Marog`iy asarlaridan eng mashhuri Samarqandda yaratilgan «Jali ul alhon» asaridir. U muqaddima, 12 bob va xotimadan iborat. Muqaddimada «musiqa» atamasining ta`rifi; musiqa ilmining mavzusi, uslublari, ilm va amaliyotning o`zaro munosabatlari haqida bahs yuritiladi. 1– bobda muallif savt, nag`ma, bo`d kabi tushunchalarga doir Urmaviy va Sheroziy ta`limotlarini tanqidiy bayon etadi. qolgan boblar ham mavzu jihatdan Urmaviy, Sheroziy asarlariga to`lik mos keladi. 12 – bobda Marog`iy harfiy nota yozuvi (tabulatura) vositasida o`z asarlaridan ayrim namunalar keltiradi. Xotima 6 fasldan iborat bo`lib, xonanda va sozandalarning majlisida o`zini tutish odobi, majlislarning turlari, turk-mo`g`ul ko`klari va ularning tasnifi, musiqani tinglash odobi va odatlari masalasiga bag`ishlangan.

Temuriylar zamonida yashab ijod etgan yana bir yirik musiqashunos, olim va shoir Mavlono Nuriddin Abdurahmon bin Ahmad al-Jomiy (1414-1492) Nishopur yaqinidagi Jom qishlog`ida dunyoga kelib, Hirot shahrida ta`lim oladi va umrining oxirigacha shu erda yashab qoladi. Abdurahmon Jomiyning nomi o`zbek va sharq musiqa madaniyatida musiqa haqidagi risolasi bilan mashhur bo`lgan. A. Jomiy (1441-1492) o`z asarida Forobiy, Ibn Sino, A. Marog`iylarning musiqa nazariyasiga oid asosiy qonunlarini davom ettirgan. XV asrning ikkinchi yarmida Hirot, Samarqand shaharlari madaniyat va san`at markaziga aylandi. Movarounnahr, Xurosondan barcha ijod ahli kelgan va shu bilan biigalikda ijrochilik san`ati, xonandalik, naqqoshlik, raqqoslik sohalari rivojlangan. Ayniqsa, shoirlar bazmlar uyushtirib, she`riyatning turli jabhalarida baxs munozaralar o`tkazdilar. Uning ko`p qirrali ijodiy faoliyati adabiyot, fan va san`at sohalari barakali bo`ldi. Alloma juda ko`p ilmiy va adabiy harakterdagi kitob va risolalar muallifidir. Xususan, musiqa nazariyasi masalalariga bag`ishlangan «Risolayi musiqiy» («Musiqiy risolasi») ayniqsa maqomlarni o`rganish borasida diqqatga sazovordir. Asar «Ilmi ta`lif», «Ilmi-iqo`» nomli ikki qismdan iborat. Asarning birinchi bo`limida an`anaviy ravishda musiqaning kelib chiqishi, «musiqa» so`zining mazmuni, san`atlarning burchi kabi muammolar yoritiladi. Jomiyning fikriga ko`ra, musiqaning tarkibiy qismlarini o`rganish «yanada go`zal va nafis san`at» yaratish uchun kerakdir. Muallif o`z fikrlarini o`rtaga

tashlar ekan, oldingi davrlar musiqa ilmi (Abu Nasr Forobiy) hamda o'z zamondoshlari tajribasiga tayanadi. Ushbu asar 1475-yil A.Navoiy taklifiga binoan yaratildi. Risola 23 qism, muqaddima va yakunlovchi qismidan iboratdir. Jomiy muqaddima va 1-2-3-boblarda musiqaning paydo bo'lishi tarixi, tovush va tovushqatorlarning tuzilishi, musiqa lug'atlarini qamrab oladi. Ushbu risolaning qismlarini tahlil qilib A.Jomiy yozgan fikrlarni keltirish joizdir: "Musiqqa ilmi ikki qismdan iborat: birinchi qism nag'malar tovushlar (ta'lif) va ikkinchi qism ritmlar tizimi (iqo')"⁶ 4 va 5-bobda intervallar (fosila)-tovushqator (jam'), tovushlarning o'zaro munosabati, ohangdosh va noohangdosh intervallar, interval va tovushlarning musiqa asboblarida yangrashi" amaliy ko'rsatmalar berilgan. 6-10-boblarda musiqaning nazariy masalalari ko'rilgan: masalan, intervallar va ularning ohangdoshligi. Intervallarga quyidagi nomlar berilgan. «zil-1-kul» - (oktava), «zil-1-xams» - (kvinta), «zil-1-arba5» - (kvarta), 11-12-qismida musiqada interval nistraxord, pentaxord, parda va tovush qatorlarining tuzilishi tog'risida ma'lumot berilgan. 13-14-qismida musiqa asbobi (ud) da ijro etish, uning ilmiy va amaliy mohiyati bu qismlarda Jomiy Al Forobiyning fikrlarini davom ettirib, ud musiqa asbobining to'rttoflariga nom bergan: «bam, maslas, masio va zer». 15-qismida 12 maqom, 24 sho'balalar to'g'risida to'liq ma'lumot berilgan. 16-18-qismlarda 12 maqomning tuzilishi, parda, tovushqatorlari, ijro xususiyatlariga nazariy va amaliy yondoshgan. 19-22-qismlar (zarb) masalasiga bag'ishlangan, ma'lumki zarb musiqa sohasida Ibn Sino, Forobiy, Muhammad Omuniy, Kushtiddin Sheroziy, Abulqodir To'lida asarlarida fikr yuritgan. Jomiy olimlarni ko'rsatilgan ko'rsatmalariga amal qilib, zarblarni turli ko'rinishlarini bergan. Musiqada zarblarni aruz vazm bilan bog'lanib, uning ahamiyatini ko'rsatib bergan. 23-qismida 12 maqom va uning qismlari, har xil maqomning insonga ta'siri. Masalan, Ushshoq, Navo, Bo'saliq insonga kuch va shijoat bag'ishlaydi. Rost, Iroq, Isfaqon, Raxoviy, Zangula insonni qayg'ulik holatiga keltiradi Jomiyning musiqa haqida risolasi qomusiy asar hisoblanib, O'rta Osiyo va Sharq xalqlari musiqa madaniyatida alohida o'ringa ega. Jomiyning ijodiga murojaat etilgan holda, aytish joizdirki, uning musiqa sohasida ohb borilgan tadqiqotlar, berilgan nazariy va amaliy bilimlar yillar davomida yirik asarlarning shakllantirishda asos bo'lib kelgan. Risolaning ikkinchi qismida o'sha davr mutaxassislari orasida keng tarqalgan usullar batafsil yoritilgan. Risolada 20-dan ortiq usullar haqida ma'lumot bor. Jomiyning yangi usullar yaratishda «chegara yo'qlig», «ixtiyor etgan kishi Yangi usul yarata olishi» haqidagi fikrlari ayniqsa qiziqarlidir. Ayni vaqtda Abdurahmon Jomiy zo'r sozanda va bastakor ham bo'lgan. Abdurauf Fitratning «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi» asarida ta'kidlanganidek, Jomiy o'z zamonasida mashhur bo'lgan «Naqshi Mullo» nomli asari muallifidir. Yuqorida qayd etilganidek, Abdurahmon Jomiyning «Risolayi musiqiy» asari Navoiyning iltimosi bilan buyuk olimning keksayib qolgan chog'larida yozilgan edi. Navoiy o'zining «Hamsatul-mutaxayyirin» asarida bu risolaning yuzaga kelishi haqida

⁶ Jomiy A. Asariar. 8 torn. 208-b.

eslatib o'tadi. Navoiyning yozishicha, ustod Qulmuhammad Udiy yoshligidan musiqaqaga havas qo'rgan va ajoyib kuylar yaratgan edi. Keyinchalik u juda mashhur san'atkor bo'lib etishadi. Buyuk Navoiy shoir va san'atkorlar homiysi sifatida unga musiqa nazariyasidan ham ma'lumot berishni lozim topadi va bir necha olimlarga musiqa risolasi yozishni tavsiya etadi. Mavjud risolalar juda murakkab bo'lib, ommabop emas edi. Shuning uchun musiqa nazariyachilaridan mavlono Alishoh, («Aslul-vasl» nomli asar muallifi), Amir Murtoz, Xo'ja Shahobiddin, Abdulla Marvarid kabilar musiqaqaga doir risolalar yozadilar. Navoiyga bularning hech biri ma'qul bo'lmaydi. Oqibatda Navoiyning iltimosi bilan Abdurahmon Jomiyning «Risolaiy musikiy» asari yuzaga keladi. E'tirof etish kerakki, allomaning bu asari o'sha zamonda yaratilgan va bizgacha etib kelmagan boshqa musiqa risolalari mazmunini ko'rsatib beruvchi asar namunasi bo'lib ham xizmat qiladi. Mashhur fors-tojik shoiri Kamoliddin Binoiy Kamoliddin bin Ali bin Muhammad Binoiy XV asrning o'rtalarida Hirotda me'mor oilasida tavallud topgan. Yoshligidan Hirotning adabiy-madaniy muhitida ko'pgina shoir va bastakorlar bilan ijodiy munosabatda bo'lib, shoir va hattot sifatida mashhur bo'ldi. U o'zining she'rlari va musiqa ijodiyoti bilan tez orada Navoiy e'tiborini o'ziga jalb qiladi. Biroq ayrim sabablarga ko'ra Sulton Xusayn va uning Saroy shoirlari bilan ziddiyatlar chiqaradi. Natijada Iroqqa Jaloyirlar saroyiga ketishga majbur bo'ladi. Oradan ikki yil o'tgach Kamoliddin Hirotda qaytadi, biroq yana ayrim kelishmovchiliklar tufayli bu erdan Samarqandga Shayboniylar poytaxtiga ko'chib ketadi. Va shundan so'ng Binoiy Shayboniyxonning saroy shoiri sifatida umrining oxirigacha Shayboniylar bilan birga bo'ladi. («Shayboniynoma» dostoni Muhammad Shayboniyxonga bag'ishlangan). K. Binoiy 1512 yil Zahiriddin Bobur va shoh Tahmasb tomonidan qarshi shahrida amalga oshirilgan «katlilom» davomida halok bo'ladi. Binoiyning «Risola dar musiqa» asari muqaddima, 2 maqola va xotimadan iborat. Muallifning dastxati yagona nusxada Eronda shaxsiy kutubxonalarning birida saqlangan bo'lib, Dari ush Safvad va Taqi Binesh tahriri ostida Tehronda nashr qilingan. Muqaddimada Urmaviyning nazariyasi asosida musiqa, nag'ma, savt, bo'd tushunchalarining ta'rifi keltiriladi. jins, jam', davr va tabaqot, mutanofir va muloyimot masalalariga bag'ishlangan. Bunda Binoiy o'z davrida amaliyotda ko'llanilgan 12 makom tizimi, 24 sho'ba va 6 ovozot tarkibini, shuningdek ud va inson mijozi (temperament) orasidagi mutanosiblik masalalarini batafsil bayon etadi.

XIV-XV asrlar tasviriy san'ati tarixga uyg'onish davri bo'lib kirdi. Bu davrda tasviriy san'at nihoyatda taraqqiy qilgan. Tasviriy san'at bu davrda xayoliy mavkulikdan hayotiylikni tasvirlagan. Bu jihatdan zamondoshlari tamonidan "Moniy Soniy", keyinchalik garb olimlari tamonidan "Shark Rafaeli" deb ulug'langan Kamoliddin Bexzod va u asos solgan miniatyura maktabi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu davrda Jomiy, Navoiy, Xusayn Boykoro, Bobur, Shayboniylarning qiyofasi yaratildi. Bexzod Ali Yazdiyning Zafarnomasiga 12 ta tasvir chizadi. Bunda Temur faoliyati bilan bog'liq bo'lgan voqealar, jang manzaralari, kabul marosimlari, Samarqanddagi

binokorlik ishlari aks ettirilgan. Zafarnomadagi birinchi kushalok tasvirda Amir Temurni bogda utkazayotgan kabul marosimi aks etgan. Ung tamondagi tasvirlar Temur va uning ugillari, sul tomonda esa elchilik harakatlari aks ettirilgan. Bexzod yana bir tasvirda togdagi jang manzarasini aks ettirgan. Tuxtamish bilan bo'lgan jang tasvirlari xam dikkatga loyikdir. Tasvirlarning yana birida Bexzod "Bibixonim" masjidini qurilish jarayonini aks ettirgan. Keyingi tasvirda binoni jixozlash jarayonini aks ettirgan bexzod tamonidan Dexlaviy, Nizomiy, Navoiy asarlariga xam tasvirlar chiziladi. Bexzod asarlarida kupincha kurkam chorbog'lar manzarasi, saroylar, nakshinkor peshtoklar tasviri dunyoga mashhur edi. Musavirlardan Abdulxoy va Axmad Bog'i shamoliylar shuxrat kozongan. Xirot miniatyura maktabiga yaqin bo'lgan Samarqand miniatyura maktabi shakllangan. Bu maktab asarlari orasida As Sufiyni astranomiya oyd rusolasiga ishlangan rasmlar (1437), Ulug'bek asarlari rasmlari, "Xamsa"dagi rasmlar xam mashhur bo'ldi. Bu davrda Maxmud Muzakkib va Chogri Muxassinlar Nizomiy asarlariga rasmlar ishlagan. Muhammad murod Samarqandiy esa "Shoxnoma"ga rasmlar chizgan.

Prezidentimiz farmoni bilan ma'naviy va milliy kadriyatlarimizni qayta tiklash maqsadida 1996 yilni Amir Temur yili deb e'lon qildi. "Amir Temur" ordeni ta'sis etildi, Samarqand va Kesh shaharlari ushbu orden bilan takdirlandi va bundan keyin xam Amir Temurga bo'lgan munosabatlarimiz rivojlanib boraveradi. Amir Temur davrida tarix fani rivojlandi.

ADABIYOTLAR

1. 2017-2021 yillar O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantish bo'yicha harakatlar strategiyasi.
2. Mirziyoyev SH Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston, 2017
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga
4. Murojaatnomasi. T.: O'zbekiston 2018
5. Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ulaning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus.
6. Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ulaning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus.
7. Karimov I. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008 7.I.A. Karimov. Barkamol avlod orzusi. T.: O'zbekiston. 2000.
8. I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 2000
9. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". T.Ma'rifat. 1997
10. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. Jild III. 1948y
11. "Ma'rif va madaniyat" jurnali. Baku. 1923 y. N 8.
12. Muminov I. A. Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va ro'li. T-1993,23 b.
13. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi 294-v. 6-bob.
14. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi 252-v. 1-bob.
15. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 62-v. 7-bob.